

YUTONG AVTOBUSLARINING TORMOZ TIZIMIGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ravshanov J.M

*Toshkent raqamli iqtisodiyot va servisi
texnikumi ishlab chiqarish ta'limi ustasi*

O'zbekiston Respublikasi hududida zamonaviy va qulay avtobuslar orqali yo'lovchilarni xavfsiz va sifatli tashishni ta'minlash bugungi kunda eng ustuvor vazifalardan biridir. Xitoy va O'zbekiston o'rtasida tuzilgan hamkorlik bitimlari doirasida mamlakatimizga olib kelingan Yutong avtobuslari jamoat transporti tarmog'ida keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, ushbu transport vositalariga texnik servis xizmatini tashkil qilish va takomillashtirish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Mazkur servis tizimini o'zgartirish orqali avtobuslarning ba'zi agregatlariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ekspluatatsiya muddatini cho'zish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash mumkin. Yutong avtobuslarida ekspluatatsiya jarayonida yuzaga kelgan nosozlik va buzilishlar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida texnik xizmat ko'rsatish rejimi takomillashtirildi.

Dastlabki tadqiqotlarimizda nazorat ostiga olingan avtobuslar soni 76 ta "Yutong ZK6126HG" avtobuslari tormoz tizimi bo'yicha hisobiy mehnat sarfini me'yori quydagilarga teng: $T_{30}=237.48$ ishchi soat, $T_{60}=239.7$ ishchi soat, $T_{90}=232.36$ ishchi soat, $T_{120}=234.25$ ishchi soatga teng.

Takomillashtirganimizdan keyin esa natijalar quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: $T_{30}=229.88$ ishchi soat, $T_{60}=232.1$ ishchi soat, $T_{90}=224.76$ ishchi soat, $T_{120}=226.65$ ishchi soatga teng.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud servis tizimida ayrim texnologik jarayonlar, xususan, **tormoz tizimi ta'miri**, ayniqsa **tormoz kolodkalarini almashtirish uchun zarur jihozning yo'qligi uchun** amaliyotda mehnat sarfi

oshgan buning natijasida ish unumdorligi pasaygan, avtobuslarning servisda turgan vaqti ortgan. Shu sababli, G'ildirakni olib qayta joyiga qoyadigan aravachani servis liniyasiga kiritish taklif qilindi. Mazkur jihoz yordamida: **Yutong avtobuslari uchun bu ko'rsatgich 0.1 soatgacha qisqaradi.**